



O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORI

VOL. 3 /ISS:3 (2026)

INSURANCE MARKET OF UZBEKISTAN

СТРАХОВОЙ РЫНОК УЗБЕКИСТАНА

INSURANCE



TOSHKENT DAVLAT
IQTISODIYOT UNIVERSITETI



TASHKENT STATE
UNIVERSITY OF ECONOMICS



№	MUNDARIJA	Page
1.	TOVARLAR AUDITI NATIJALARINI AUDITORLIK HISOBOTIDA AKS ETTIRISH TARTIBI <i>Ibragimov Mansur Mardonovich, Qurbonov Muhammadali Bahodirovich</i>	4
2.	O'ZBEKISTONDA XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA BUXGALTERIYA HISOBINI TASHKIL ETISH <i>Shirinov Uchqun Abduxalilovich, Shirinova Obida Toshpulatovna</i>	8
3.	ORGANIZATION OF AN AUDIT OF THE MOVEMENT OF FIXED ASSETS BASED ON INTERNATIONAL STANDARDS REQUIREMENTS <i>Ibragimov Mansur Mardonovich, Orzumurodova Farangiz Damirovna</i>	12
4.	QURILISH TASHKILOTLARIDA BUXGALTERIYA HISOBI VA AUDITINI TAKOMILLASHTIRISHNING ZAMONAVIY YO'NALISHLARI <i>Po'latov Xudoyberdi Uktamovich, Qo'chqorov Muslimbek Bobojon o'g'li</i>	16
5.	SAVDO KORXONALARIDA TOVAR OPERATSIYALARI AUDITINING TASHKILIY TA'MINOTI <i>Ibragimov Mansur Mardonovich, Tursunboyev Sarvar Shuxrat o'g'li</i>	19
6.	SAVDO KORXONALARIDA BUXGALTERIYA HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Po'latov Xudoyberdi Uktamovich</i>	24
7.	TURIZM KORXONALARIDA HISOB SIYOSATINI SHAKLLANTIRISH <i>Ibragimov Mansur Mardonovich</i>	27
8.	KORXONALARDA MEHNAT HAQI HISOBI VA NAZORATINING INNOVATSION MEXANIZMLARI <i>Xudaynazarova Dilnoza Gafurovna, Davronov Miraziz Baxtiyor o'g'li</i>	30
9.	XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA ASOSIY VOSITALAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Shirinov Uchqun Abduxalilovich, Bahodirova Madinabonu Ixtiyor qizi</i>	33
10.	MEHNAT HAQI HISOBI VA AUDITINING ZAMONAVIY METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Xudaynazarova Dilnoza Gafurovna, Yusupov Shavkar Xushvaqt o'g'li</i>	37
11.	KORXONALARDA MEHNAT HAQI HISOBI VA AUDITINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH <i>Xudaynazarova Dilnoza Gafurovna, Akmalov Ilg'or Nazirovich</i>	41
12.	XIZMAT KO'RSATUVCHI KORXONALARDA XARAJATLAR HISOBI VA KALKULYATSIYASINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Po'latov Xudoyberdi Uktamovich, Toshbekov Firdavs Abdurauf o'g'li</i>	44
13.	XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TOVAR-MODDIY ZAHIRALAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Shirinov Uchqun Abduxalilovich, Bahodirova Madinabonu Ixtiyor qizi</i>	47
14.	ASOSIY VOSITALARNI HISOB OBYEKTI SIFATIDA TASNIFLASH VA BAHOLASHNI MHXS ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH <i>Shirinov Uchqun Abduxalilovich, Shakarov Shahzod Sobir o'g'li</i>	52
15.	XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARNING KREDIT VA QARZ MABLAG'LARIDAN FOYDALANISH HISOBINI VA TAHLILINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Mahmudova Go'zal Samadjon qizi</i>	56
16.	IQTISODIY O'SISH BARQARORLIGINI TA'MINLOVCHI OMILLAR. (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA) <i>Xolbekov Shoxsuvor Ochilovich</i>	61
17.	ФОРМИРОВАНИЕ РЫНКА ВТОРИЧНЫХ РЕСУРСОВ КАК ОСНОВА РЕСУРСОСБЕРЕГАЮЩЕЙ МОДЕЛИ ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ <i>Ким Татьяна Валерьевна</i>	65
18.	ОПЫТ ЮЖНОЙ КОРЕИ ПО ВНЕДРЕНИЮ СИСТЕМЫ КОРЕЙСКОГО ФОНДА КРЕДИТНЫХ ГАРАНТИЙ <i>Рахманов Бекзод Ибрагимович</i>	70

19	TRANSPORT SUG'URTASINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Rustamov Sherzod Raxmataliyevich</i>	74
20	RIVOJLANGAN MAMLAKATLAR SUG'URTA SEKTORIDA BIZNES JARAYONLARINI BOSHQARISH MEXANIZMLARI VA ULARNI MILLIY SUG'URTA TIZIMIGA TATBIQ ETISH IMKONIYATLARI <i>Yakubova Nargiz Tursunbayevna</i>	76
21	НАПРАВЛЕНИЯ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ БАНКОВСКОГО СТРАХОВАНИЯ В СТРАХОВОЙ ПРАКТИКЕ УЗБЕКИСТАНА <i>Закирходжаева Ширин Акмаловна</i>	80
22	THE PLACE AND IMPORTANCE OF THE LOGISTICS INDUSTRY IN THE NATIONAL ECONOMY <i>Matiyazova Sanobar Rajabbayovna</i>	84
23	O'ZBEKISTONDA ISLOMIY BANKLAR INVESTITSIYA FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH MUOMMOLARI <i>Mirzasalimova Ozoda To'liq qizi</i>	88
24	O'ZBEKISTONDA SUG'URTA FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI <i>Baratova Dinora Alisherovna</i>	90
25	IQTISODIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHDA XIZMAT KO'RSATISH JARAYONLARINI BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI <i>Ilhom Safarboyevich Shukurov</i>	92
26	GLOBALASHUV SHAROITIDA TEXNOLOGIK PIVOJLANISH QONUNIYATLARI <i>Mamatova Fotima Abdusalomovna</i>	96
27	NOMODDIY AKTIVLARNI HISOB OBYEKTI SIFATIDAGI TASNIFI VA TAVSIFINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Shirinov Uchqun Abduxalilovich, Abdug'ofurov Og'abek Tolib o'g'li</i>	99
28	MINTAQADA TURIZM INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI <i>Muxiddinov Tal'at Shaydullo o'g'li</i>	103
29	MAMLAKATIMIZDA JORIY ETILAYOTGAN "XAVFSIZ SHAHAR" LOYIHASINING ASOSIY VAZIFALARI TAHLILI <i>Iminov Akbarjon Odiljon o'g'li</i>	106
30	O'ZBEKISTONDA PENSIYA SUG'URTASINI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBALARIDAN FOYDALANISH YO'LLARI <i>Yoldoshova Aziza Muzaffar qizi</i>	110
31	SUG'URTA XIZMATLARINI KO'RSATUVCHI SUBYEKTLARDA DAROMADLAR AUDITINI TASHKIL ETISH VA TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI <i>Urozov Komil Bahromovich, Sharifov Davlatjon Nosirovich</i>	113
32	SUG'URTA TASHKILOTLARI MOLIVAVIY BARQARORLIGINING IQTISODIY MOHIYATI VA OMILLARI <i>Xolbayev Azamat Yuldashovich</i>	117
33	SUG'URTA XIZMATLARINI KO'RSATUVCHI SUBYEKTLARDA DAROMADLAR HISOBI VA AUDITINING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Urozov Komil Bahromovich</i>	122
34	ПРИМЕНЕНИЕ ИНФОРМАЦИОННОЙ БАЗЫ И ИНТЕРНЕТ РЕСУРСОВ ПРИ ИЗУЧЕНИИ ТЕМАТИКИ «СТАТИСТИКА ВНЕШНЕЙ ТОРГОВЛИ» <i>Сиддиков Алишер Журакулович, Зокирова Муниса Жамолiddин кизи</i>	125
35	TA'LIM SIFATINING MEHNAT BOZORIDAGI BANDLIK DARAJASIGA TA'SIRI <i>Hamroyeva Dilso'z Yahoyevna, Ro'ziyeva Shaxruza Sherali qizi</i>	131
36	XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARINI RIVOJLANTIRISHDA MARKETING NAZARIYASINI SHAKLLANISHI <i>Isakova Naima Ikromjonovna</i>	134

37	O'ZBEKISTONDA BARQAROR RIVOJLANISH STRATEGIYASI ASOSIDA MINTAQAVIY SANOATLASHUVNI AMALGA OSHIRISH XUSUSIYATLARI <i>Qosimova Hilola Jamshedovna</i>	138
38	RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA INSURTECH TEXNOLOGIYALARINING SUG'URTA BOZORI RAQOBATBARDOSHLIGIGA TA'SIRI <i>Xakimzoda Maftuna, Yusuf qizi</i>	143
39	O'ZBEKISTONDA TURIZM MARKETINGI VA RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH <i>Ikramova Nasiba Axmadovna</i>	146
40	LOGISTIKA TIZIMLARIDA RISKLARNI BOSHQARISH VA SUG'URTA MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Abdutturapova Dildora Farxodjon qizi</i>	149
41	SUG'URTA BOZORINING IQTISODIY-STATISTIK TAHLILI VA RIVOJLANTIRISH YO'LLARI <i>Djumaniyazov Shavkat Raximovich</i>	151
42	O'ZBEKISTON SHAROITIDA OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA BOJXONA MA'MURIYATCHILIGINING INSTITUTSIONAL MEXANIZMI VA TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI <i>Matkarimova Iroda Muxtorovna</i>	155
43	YANGI O'ZBEKISTON TARAQQIYOT STRATEGIYASIDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY AHAMIYATI VA USTUVOR YO'NALISHLARI <i>Yoqubova Fotimaxon Baxromjonovna</i>	159
44	O'ZBEKISTON MOLIYA BOZORIDA ISLOM BANK XIZMATLARINI YO'LGA QO'YISHNING DOLZARBLIGI VA IKKILIK BANK TIZIMI <i>Sohibnazarov Abdurashid Abduvohidovich</i>	162
45	O'ZBEKISTONDA KIBERJINOYAT RISKLARINI STRATEGIK BOSHQARISHNI HUQUQIY ASOSLARI TAHLILI <i>Xasanov Umidjon Yusupovich</i>	167
46	CLOUD-BASED MANAGEMENT SYSTEMS AND THEIR IMPACT ON UNIVERSITY GOVERNANCE: A PROPOSED PLS-SEM FRAMEWORK FOR HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS IN UZBEKISTAN <i>Olimjonov Abbosjon Olimjonovich</i>	170
47	ПРОГНОЗНО-ПЛАНОВАЯ СИСТЕМА ПОДГОТОВКИ КАДРОВ ДЛЯ ЭФФЕКТИВНОГО ФУНКЦИОНИРОВАНИЯ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО КАПИТАЛА И СБАЛАНСИРОВАННОСТИ РЫНКА ТРУДА <i>Холбаева Сабина Рустамовна</i>	173
48	TURIZM IQTISODIYOTIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING ROLI <i>Jalolov Otabek Oybek o'g'li</i>	177
49	MAHALLA TIZIMIDA MADANIY LOYIHALARNI BOSHQARISHNING INTEGRATSIYALASHGAN IJTIMOY-IQTISODIY MODELI: JAMOATCHILIK ISHTIROKI, RAQAMLI TRANSFORMATSIYA VA INSTITUTSIONAL ISHONCH YONDASHUVI <i>Umarova Roxilaxon Xaliljon qizi</i>	181
50	KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIK RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA «YASHIL IQTISODIYOT TAMOYILLARIDAN FOYDALANISHNING NAZARIY TALQINI <i>Aripov Oybek Abdullayevich</i>	185
51	ENHANCING THE MECHANISMS OF HIGHER EDUCATION QUALITY ASSURANCE IN UZBEKISTAN THROUGH DIGITAL GOVERNANCE <i>Rakhimov Olim Khamidovich, Zhang Meimei</i>	188
52	TURIZM SUG'URTASIDA RISKLARNI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH: TRCM MODELI VA PARAMETRIK SUG'URTA ASOSIDA <i>Maksudova Umeda Sharifovna</i>	194
53	AGROSANOAT MAJMUINI RAQAMLI BOSHQARISH – ZAMON TALABIDIR <i>Kuldashev Erkin</i>	197

54	<i>HUDUDLAR IQTISODIYOTI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA INNOVATSION EKOTIZIMLARNI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI</i> <i>Maxamatova Malika Abdurashid qizi</i>	201
55	<i>MECHANISMS FOR THE USE OF INTELLECTUAL ALGORITHMS IN OPTIMIZING CONSTRUCTION COSTS AND DEVELOPING SERVICE PROVISION BASED ON ARTIFICIAL INTELLIGENCE</i> <i>Qidirniyazov Ajiniyaz Sherniyazovich</i>	205
56	<i>DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK LOYIHALARINI MOLIYALASHTIRISHDA KONSESSIYA SHARTNOMALARI VA SPV MEXANIZMIDAN FOYDALANISH YO'NALISHLARI</i> <i>Ollokulova Feruza Mansurovna</i>	209

“O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORI” JURNALI TAHRIR KENGASHI A‘ZOLARI

1. Teshabayev To‘lqin Zakirovich (Kengash raisi. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, i.f.d. prof.).
2. Fayziyev Orifjon Olimovich (Kengash raisi o‘rinbosari, Istiqbolli loyihalar milliy agentligi direktor o‘rinbosari).
3. Azimov Rustam Sadikovich (O‘zbekinvest eksport-import sug‘urta kompaniyasi AJ Bosh direktori, i.f.d. prof.).
4. Mehmonov Sultonali Umaraliyevich (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, i.f.d., prof.).
5. Abduraxmonova Gulnora Qalandarovna (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, i.f.d. prof.).
6. Xudoyqulov Sadirdin Karimovich (TDIU huzuridagi “O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari” ilmiy tadqiqot markazi direktori).
7. Xalilov Oybek Nasirovich (O‘zbekiston sug‘urta bozori professional ishtirokchilari Uyushmasi Kengash raisi).
8. Qo‘ldoshev Qamariddin Mansurovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida professori, i.f.d., Bosh muharrir).
9. Zaynalov Jahongir Rasulovich (Samarqand iqtisodiyot va servis instituti “Moliya” kafedrasida mudiri, i.f.d. prof.).
10. Shennayev Xo‘jayor Musurmanovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida mudiri, DSc, prof.).
11. Boyev Habibullo Ismoilovich (TDIU “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasida professori, i.f.d.).
12. Nurullayev Abdulaziz Sirojiddinovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida dotsenti, i.f.d.).
13. Merident Randles (FSA, MAAA. Prinsipal & Consulting Actuary. Senior Consultant, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative).
14. Ong Xie (FIA, FSAS. Program Manager, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative. Pronouns: She/Her).
15. Yadgarov Akram Akbarovich (TDIU “Yashil iqtisodiyot” kafedrasida professori, i.f.d.).
16. Yuldashev Obiddin Toshmurzayevich (TDIU magistratura dekan muovini, i.f.d.).
17. Maxmudov Akbar Abduxamidovich (Toshkent ijtimoiy innovatsiya universiteti rektori, PhD, dotsent).
18. Axrorov Zarif Oripovich (TDIU Samarqand filiali “Moliya, soliq va bank ishi” kafedrasida mudiri, i.f.d., dotsent).
19. Qurbonov Xayrulla Abdurasulovich (TDIU Xalqaro va milliy reytinglar bilan ishlash bo‘limi boshlig‘i, i.f.n. dots.).
20. Raxmatullayev Botirjon Abduxamidovich (Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti. Akademik faoliyat bo‘yicha prorektor PhD, dotsent).
21. Musaxonzoda Ikromjon Sobirxon o‘g‘li (TMC institute “Milliy ta‘lim yo‘nalishlari akademik faoliyat va ilmiy ishlar” bo‘yicha prorektor, PhD).
22. Hasanov Xayrulla Nasrullayevich (TDIU Besh tashabbus markazi bo‘lim boshlig‘i, PhD).
23. Kenjayev Ilxom G‘iyozovich (TDIU magistratura dekan muovini, PhD, dots.).
24. Imomov Hamdilla Hamdamovich (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida professor v.b., i.f.n.).
25. Baratova Dinara Alisherovna (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida dotsenti, PhD. Tahririyat kengashi kotibi).
26. Agzamov Avazxon Talgatovich (TDIU “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasida professori, PhD).
27. Nomozova Qumri Isoyevna (Bank moliya akademiyasi dotsenti, PhD).
28. Xamdamiyev Shoh-Jaxon Raxmat o‘g‘li (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida dotsenti, PhD).
29. Maxmudov Samariddin Baxriddinovich (“Ma‘mun” universiteti “Iqtisodiyot” kafedrasida dotsenti, PhD).
30. Abduturapova Dildora Farxodjon qizi (“Ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish” bo‘limi bosh mutaxassisi, PhD).
31. Abdusattarova Dildora Baxodirovna (TDIU “Soliq va soliqqa tortish kafedrasida dotsenti).
32. Nosirov Jasur Tursunpulotovich (Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti “Akademik faoliyat va registrator” departamenti rahbari, PhD, dotsent).
33. Adilova Gulnur Jorabayevna (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida dotsenti, PhD.).
34. Malikova Dilrabo Mo‘minovna, (TDIU Samarqand filiali "Moliya, soliq va bank ishi" kafedrasida dotsenti, PhD).
35. Bobomurotova Manzura Panji qizi (TDIU “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasida assistenti, PhD).



HUDUDLAR IQTISODIYOTI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA INNOVATSION EKOTIZIMLARNI RIVOJLANTIRISH MEKANIZMLARI

Maxamatova Malika Abdurashid qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

"Makroiqtisodiy siyosat va prognozlash" kafedrasida katta o'qituvchisi

E-mail: makhamatovam@gmail.com

ORCID: 0009-0003-7064-1866

Annotatsiya: Mazkur maqolada hududlar iqtisodiyoti raqobatbardoshligini oshirishda innovatsion ekotizimlarni rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari hamda amaliy mexanizmlari tadqiq etilgan. Shuningdek, davlat, ilmiy-tadqiqot muassasalari, oliy ta'lim muassasalari, biznes subyektlari va moliyaviy institutlar o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish orqali innovatsion faoliyat samaradorligini oshirish masalalari tahlil qilingan. Innovatsion infratuzilmani rivojlantirish, texnologiyalar transferini jadallashirish, startap loyihalarni qo'llab-quvvatlash, investitsiyalarni jalb etish hamda raqamli texnologiyalarni keng joriy etishning hududlar iqtisodiyoti raqobatbardoshligiga ta'sirini oshirishga doir ilmiy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: hududlar iqtisodiyoti, innovatsion ekotizim, hududiy raqobatbardoshlik, innovatsion infratuzilma, texnologik tadbirkorlik, startap ekotizimi, texnologiyalar transferi, venchur kapital, raqamli transformatsiya, innovatsion rivojlanish.

Abstract: This article examines the theoretical and methodological foundations and practical mechanisms for developing innovative ecosystems to increase the competitiveness of regional economies. It also analyzes the issues of increasing the efficiency of innovative activities by strengthening cooperation between the state, research institutions, higher education institutions, business entities and financial institutions. Scientific proposals and recommendations are developed to develop innovative infrastructure, accelerate technology transfer, support startup projects, attract investments, and increase the impact of the widespread introduction of digital technologies on the competitiveness of regional economies.

Keywords: regional economy, innovation ecosystem, regional competitiveness, innovation infrastructure, technological entrepreneurship, startup ecosystem, technology transfer, venture capital, digital transformation, innovative development.

Абстрактный: В статье рассматриваются теоретические и методологические основы и практические механизмы развития инновационных экосистем для повышения конкурентоспособности региональных экономик. Также анализируются вопросы повышения эффективности инновационной деятельности путем укрепления сотрудничества между государством, научно-исследовательскими институтами, высшими учебными заведениями, хозяйствующими субъектами и финансовыми учреждениями. Разработаны научные предложения и рекомендации по развитию инновационной инфраструктуры, ускорению трансфера технологий, поддержке стартап-проектов, привлечению инвестиций и повышению влияния широкого внедрения цифровых технологий на конкурентоспособность региональных экономик.

Ключевые слова: региональная экономика, инновационная экосистема, региональная конкурентоспособность, инновационная инфраструктура, технологическое предпринимательство, стартап-экосистема, трансфер технологий, венчурный капитал, цифровая трансформация, инновационное развитие.

Kirish (Введение/Introduction).

Jahon iqtisodiyotining raqamli transformatsiyasi, to'rtinchi sanoat inqilobi hamda bilimlarga asoslangan iqtisodiyotga o'tish jarayonlari hududlarning barqaror iqtisodiy rivojlanishi va raqobatbardoshligini ta'minlashda innovatsiyalarning hal qiluvchi omilga aylanishiga olib kelmoqda. Bugungi kunda hududlarning iqtisodiy salohiyati tabiiy resurslar yoki ishlab chiqarish quvvatlari bilan emas, balki innovatsion faollik darajasi, ilmiy-texnologik salohiyat, inson kapitali sifati, raqamli infratuzilmaning rivojlanganligi hamda innovatsiyalarni yaratish, tijoratlashtirish va amaliyotga joriy etish imkoniyatlari bilan baholanmoqda. Shu nuqtai nazardan innovatsion ekotizimlarni shakllantirish va samarali rivojlantirish hududlar iqtisodiyoti raqobatbardoshligini oshirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Xalqaro amaliyotda innovatsion ekotizim davlat organlari, oliy ta'lim muassasalari, ilmiy-tadqiqot institutlari, xususiy sektor, moliyaviy institutlar, venchur kapital fondlari va fuqarolik jamiyati institutlarining o'zaro hamkorligiga asoslangan yaxlit innovatsion muhit sifatida talqin qilinadi. Bunday ekotizimning samarali faoliyati yangi texnologiyalar transferi, startaplarni rivojlantirish, yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarish, investitsiyalarni jalb qilish va hududlarning eksport salohiyatini oshirishga xizmat qiladi. Biroq hududlar kesimida innovatsion salohiyatning nomutanosibligi, ilmiy ishlanmalarning ishlab chiqarishga joriy etilish darajasining pastligi, xususiy sektorning innovatsion faolligi cheklanganligi hamda innovatsion infratuzilmaning

yetarlicha rivojlanmaganligi hududlar raqobatbardoshligini oshirish jarayonida muayyan muammolarni keltirib chiqaradi. Natijada hududlar milliy va xalqaro bozorlarda barqaror raqobat ustunliklarini shakllantirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 6-iyuldagi «2022-2026-yillarda O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi PF-165-sonli Farmonida mamlakat iqtisodiyotini innovatsion rivojlantirishda hududlarning innovatsion ekotizimlarini shakllantirish, texnologik tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, startap loyihalarni moliyalashtirish, innovatsion infratuzilmalarni rivojlantirish hamda ilmiy natijalarni tijoratlashtirishga alohida e'tibor qaratilgan[1]. Mazkur chora tadbirlar innovatsion infratuzilmani rivojlantirish va hududlarda innovatsion loyihalarni qo'llab-quvvatlashning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirishga doir ilmiy tadqiqotlarni dolzarb ahamiyat kasb etishidan dalolat beradi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Обзор литературы/Literature review).

Hududlar iqtisodiyoti raqobatbardoshligini oshirish jarayoni xorij iqtisodchi olimlaridan M.Porterning tadqiqotlarida atroflicha yoritilgan bo'lib, tadqiqotda mamlakat hududlarining raqobatbardoshligi tabiiy resurslar yoki ishlab chiqarish omillari bilan emas, balki innovatsiyalar, texnologiyalar, ilmiy salohiyat, inson kapitali va klasterlar faoliyatining samarali faoliyati orqali namoyon bo'lishi qayd etiladi[2]. R.Nelson tadqiqotlarida milliy innovatsion tizim konsepsiyasi asoslab beriladi.

Mamlakat va uning hududlarini innovatsion rivojlanish darajasi davlat, ilmiy-tadqiqot muassasalari, universitetlar, biznes subyektlari hamda moliyaviy institutlar o'rtasidagi samarali hamkorlik darajasiga bog'liqligini ta'kidlanadi[3]. R.I.Kudryakov va G.V. Fedotova innovatsion ekotizimlarni hududlar iqtisodiyoti raqobatbardoshligini ta'minlovchi asosiy omillardan biri sifatida e'tirof etadilar. Ular innovatsion ekotizimning samaradorligi innovatsion sikl ishtirokchilari o'rtasidagi o'zaro hamkorlik, innovatsiyalarni tijoratlashtirish jarayonlarining izchilligi hamda innovatsion infratuzilmaning rivojlanganligiga bog'liq ekanligi qayd etiladi[4]. M.O.Surayeva, A.I.Ivanov, I.A.Sherstnev tadqiqotlarida hudud innovatsion infratuzilmasini samarali boshqarish hudud va mamlakat iqtisodiyoti raqobatbardoshligini oshirishning muhim institutsional omili sifatida baholanadi. Shuningdek, tadqiqotda innovatsion infratuzilmani rivojlantirishga to'sqinlik qiluvchi tashkiliy, iqtisodiy va institutsional muammolar tahlil qilinib, innovatsion jarayonlarni muvofiqlashtirish, infratuzilma subyektlari o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish borasida ilmiy takliflar ilgari suriladi[5].

Mamlakatimiz iqtisodchi olimlaridan Sh.J.Ermamatov tadqiqotlarida hududlar iqtisodiyotining innovatsion rivojlanishi va raqobatbardoshligini ta'minlashda investitsiyalarning hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligi asoslangan. Shu bilan birga, investitsiya faoliyatining barqaror va samarali rivojlanishi milliy iqtisodiyotning uzluksiz faoliyatini ta'minlab, investitsiyalar hajmi, tarkibi va samaradorligi hududlarning iqtisodiy salohiyati, innovatsion rivojlanish darajasi hamda raqobatbardoshligini belgilovchi asosiy omillardan biri ekanligi e'tirof etiladi[6]. D.A.Karimov tadqiqotlarida milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi va raqobatbardoshligini ta'minlashda hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etishi asoslanib, hududlar iqtisodiyotining rivojlanish darajasini kompleks baholashda reyting tizimini qo'llash iqtisodiy qarorlar qabul qilish samaradorligini oshirishga xizmat qilishi qayd etiladi[7]. B.O.Tursunov tadqiqotlarida iqtisodiyot real sektori tarmoqlarining raqobatbardoshligini oshirishda innovatsion omillarning strategik ahamiyatini asoslaydi. Innovatsiyalar ishlab chiqarish jarayonlarini modernizatsiya qilish, resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish, yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish hamda tarmoqlarning bozordagi raqobat ustunliklarini mustahkamlash omili sifatida e'tirof etiladi[8].

Yuqoridagi tadqiqotlarda innovatsion ekotizimlarni rivojlantirish mexanizmlarini hududlar raqobatbardoshligini kompleks oshirish vositasi sifatida, ayniqsa davlat–biznes–ilm–fan–ta'lim o'rtasidagi integratsiya, raqamli transformatsiya va innovatsion infratuzilmani bir butun tizim sifatida baholash masalalari yetarlicha tadqiq etilgan. Biroq, mazkur tadqiqotlarda innovatsion ekotizimlarning hududlar iqtisodiyoti raqobatbardoshligiga ta'sirini kompleks baholash, innovatsion ekotizim ishtirokchilari o'rtasidagi institutsional hamkorlik samaradorligini aniqlash hamda ularni rivojlantirishning zamonaviy tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini O'zbekiston hududlari xususiyatlaridan kelib chiqqan holda takomillashtirish masalalari yetarlicha yoritilmagan.

Tadqiqotni amalga oshirishda foydalanilgan usullar (Методы /Methods).

Tadqiqotda ilmiy abstraksiya, mantiqiy tahlil, tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, ekspert baholash hamda statistik tahlil usullaridan kompleks foydalanildi. Ilmiy abstraksiya usuli orqali innovatsion ekotizimlarning hududiy iqtisodiyot raqobatbardoshligiga ta'sir etuvchi nazariy yondashuvlar umumlashtirildi va ularning asosiy tarkibiy elementlari tizimlashtirildi. Mantiqiy tahlil yordamida innovatsion infratuzilma, ilmiy-tadqiqot muassasalari, oliy ta'lim muassasalari, biznes subyektlari va davlat boshqaruvi organlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik hamda hamkorlik mexanizmlari tahlil qilindi.

Qiyosiy tahlil usuli asosida innovatsion ekotizimlarni rivojlantirish bo'yicha rivojlangan davlatlar tajribasi o'rganilib, ularning O'zbekiston hududlari sharoitida qo'llash imkoniyatlari baholandi. Statistik tahlil usuli orqali innovatsion faoliyatni tavsiflovchi asosiy ko'rsatkichlar, jumladan ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlari (R&D) xarajatlari, innovatsion korxonalar ulushi, patentlar soni, startap loyihalari, texnoparklar faoliyati hamda investitsion faollik dinamikasi tahlil qilindi. Ekspert baholash usuli yordamida innovatsion ekotizimlarni rivojlantirishga to'sqinlik qilayotgan institutsional, moliyaviy, tashkiliy va infratuzilmaviy omillar aniqlandi hamda ularning hududlar iqtisodiyoti raqobatbardoshligiga ta'siri baholandi.

Shuningdek, tadqiqot davomida induksiya va deduksiya usullaridan foydalanilib, alohida hududlar misolida olingan natijalar umumlashtirildi hamda innovatsion rivojlanishning umumiy qonuniyatlarini aniqlashtirildi. SWOT tahlili asosida hududlarning innovatsion salohiyati, mavjud imkoniyatlari, zaif tomonlari va rivojlanish istiqbollari baholandi. Olingan natijalar tizimli yondashuv asosida umumlashtirilib, hududlar iqtisodiyoti

raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiluvchi innovatsion ekotizimni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari ishlab chiqildi.

Tadqiqot natijalari asosida davlat, ilmiy-tadqiqot muassasalari, oliy ta'lim muassasalari, biznes subyektlari va moliyaviy institutlar o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish, innovatsion infratuzilmani takomillashtirish, ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirishni jadallashtirish hamda hududlarda innovatsion faollikni rag'batlantirishga qaratilgan ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar shakllantirildi. Mazkur metodologik yondashuv tadqiqot natijalarining ishonchligi, ilmiy asoslanganligi va amaliy ahamiyatini ta'minlashga xizmat qiladi.

Tahlil va natijalarlar (Анализ и результаты/Analysis and results).

Hududlar iqtisodiyoti raqobatbardoshligini oshirish innovatsion ekotizimning shakllanganlik darajasi va uning ishtirokchilari o'rtasidagi hamkorlik samaradorligi bilan bevosita bog'liq. Zamonaviy iqtisodiyotda innovatsion ekotizim davlat boshqaruvi organlari, oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari, biznes subyektlari, moliyaviy institutlar hamda innovatsion infratuzilma subyektlari o'rtasidagi uzviy hamkorlikni ta'minlovchi yaxlit institutsional tizim sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu tizimning samarali faoliyati innovatsiyalarni yaratish, tijoratlashtirish va iqtisodiyot tarmoqlariga joriy etish jarayonlarini jadallashtirib, hududlarning iqtisodiy o'sishi va raqobatbardoshligini ta'minlaydi.

Hududlarda innovatsion ekotizimlarning samaradorligini cheklayotgan asosiy omillar sifatida innovatsion infratuzilmaning notekis rivojlanganligi, ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish darajasining pastligi, venchur moliyalashtirish instrumentlarining cheklanganligi, innovatsion loyihalarga xususiy investitsiyalar ulushining yetarli emasligi hamda ilm-fan, ta'lim va biznes o'rtasidagi kooperatsiyaning sustligi orqali namoyon bo'ladi. Bu holat hududlarning innovatsion salohiyatidan to'liq foydalanish imkoniyatlarini cheklab, raqobatbardoshlik ko'rsatkichlariga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shundan kelib chiqib, hududlar iqtisodiyoti raqobatbardoshligini oshirish maqsadida innovatsion ekotizimlarni rivojlantirishning quyidagi ustuvor mexanizmlarini joriy etish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

- davlat–ilm–fan–ta'lim–biznes hamkorligini institutsional jihatdan mustahkamlash;
- texnologik parklar, biznes-inkubatorlar va innovatsion klasterlar faoliyatini kengaytirish;
- innovatsion loyihalarni moliyalashtirishning venchur va xususiy investitsiya mexanizmlarini rivojlantirish;
- raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt yechimlarini ishlab chiqarish hamda boshqaruv jarayonlariga keng joriy etish;
- innovatsion ekotizim samaradorligini baholovchi integral reyting va monitoring tizimini shakllantirish;
- intellektual mulk obyektlarini tijoratlashtirish hamda texnologiyalar transferi jarayonlarini faollashtirish.

Innovatsion ekotizimlarni kompleks rivojlantirish hududlarning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish, yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish, eksport salohiyatini mustahkamlash va mehnat unumdorligini yuksaltirish orqali hududlar iqtisodiyoti raqobatbardoshligini ta'minlashning muhim mexanizmi hisoblanadi. Shuningdek, innovatsion ekotizimlarning samarali faoliyati mamlakatning barqaror iqtisodiy o'sishi, hududlar o'rtasida mutanosib rivojlanishni ta'minlash va innovatsiyalarga asoslangan iqtisodiyotni shakllantirish uchun mustahkam asos yaratadi.

O'zbekistonda so'nggi yillarda innovatsiyalarga asoslangan iqtisodiyotni shakllantirish va hududlar raqobatbardoshligini oshirish davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Xususan, innovatsion rivojlanish, raqamli iqtisodiyotni kengaytirish, IT xizmatlari eksportini oshirish, startaplarni qo'llab-quvvatlash hamda hududlarda innovatsion infratuzilmani shakllantirish bo'yicha izchil institutsional islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu jarayonlar mamlakatda innovatsion ekotizimning bosqichma-bosqich shakllanayotganligini ko'rsatadi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda innovatsion ekotizimning asosiy institutsional elementlari — davlat organlari, oliy ta'lim muassasalari, ilmiy tashkilotlar, texnologik parklar, IT Park, kichik sanoat zonalar, erkin iqtisodiy zonalar va xususiy tadbirkorlik subyektlari o'rtasidagi hamkorlik kengayib bormoqda.

Innovatsion ekotizim samaradorligini baholovchi xalqaro reytinglar ham O'zbekistonda ijobiy dinamika kuzatilayotganini tasdiqlaydi. Masalan, mamlakat World Intellectual Property Organization tomonidan e'lon qilinadigan Global Innovation Index 2025 reytingida 79-o'rinni egallab, 2020 yilga nisbatan sezilarli yaxshilanishga erishdi. Biroq tahlillar innovatsion resurslar (innovation inputs) ko'rsatkichlari

innovatsion natijalar (innovation outputs)ga nisbatan yuqoriroq ekanligini ko'rsatmoqda. Shu bilan birga, mamlakat startap ekotizimida ham ijobiy o'zgarishlar kuzatilmoqda. O'zbekiston 2025 yilda ilk bor Global Startup Ecosystem Index reytingida dunyoning eng yaxshi 100 ta startap ekotizimi qatoriga kirdi va Markaziy Osiyoda eng tez rivojlanayotgan startap bozorlaridan biri sifatida e'tirof etildi.

2023–2025 yillar davomida O'zbekistonda innovatsion ekotizimning asosiy ko'rsatkichlari bo'yicha ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, IT Park rezidentlari soni 2023 yildagi 1 652 tadan 2025 yilda 2 846 taga yetgan bo'lib, ikki yil davomida qariyb 72 foizga oshgan. Shu bilan birga, IT xizmatlari eksportining izchil o'sishi, raqamli iqtisodiyotning tashqi bozorlardagi raqobatbardoshligi ortayotganligini ko'rsatadi.

Innovatsion infratuzilma obyektlari ham kengayib borgan. Jumladan, texnoparklar soni 2023 yildagi 28 tadan 2025 yilda 32 taga, erkin iqtisodiy zonalar 27 tadan 31 taga, kichik sanoat zonalar esa 390 tadan 423 taga yetgan. Bu davlat tomonidan hududlarda innovatsion muhitni shakllantirish va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar natijasidir (1-jadval).

1-jadval

2023–2025 yillar O'zbekistonda innovatsion ekotizimni rivojlantirish ko'rsatkichlari[9]

Ko'rsatkich	2023	2024	2025
IT Park rezidentlari, ta	1 652	2 280	2 846
IT xizmatlari eksporti, mln AQSH doll.	344	480,9	660
Texnoparklar soni	28	30	32
Erkin iqtisodiy zonalar	27	30	31
Kichik sanoat zonalar	390	411	423
Klasterlar	356	370	381

So'nggi uch yilda O'zbekistonda innovatsion ekotizimni rivojlantirishga qaratilgan davlat siyosati natijasida ma'lum ijobiy o'zgarishlar kuzatildi. Xususan, innovatsion infratuzilmani kengaytirish, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish, startaplarni qo'llab-quvvatlash va texnologik tadbirkorlikni rag'batlantirish bo'yicha amaliy chora-tadbirlar innovatsion faollikning o'sishiga xizmat qildi. Bu o'zgarishlar xalqaro reytinglarda ham o'z aksini topmoqda.

Respublika miqyosida innovatsion rivojlanish ko'rsatkichlari ijobiy o'sish dinamikasiga ega bo'lsada, hududlar kesimida innovatsion ekotizimning rivojlanish darajasida sezilarli farqlar saqlanib qolmoqda.

IT Park rezidentlari sonining 2023–2025 yillarda qariyb ikki baravarga o'sganligi qayd etilgan bo'lsa-da, mazkur o'sishning asosiy qismi iqtisodiy jihatdan rivojlangan hududlar hisobiga ta'minlangan. Bu esa hududlar o'rtasida innovatsion salohiyatning nomutanosib taqsimlanganligini ko'rsatadi. Shuningdek, texnoparklar va erkin iqtisodiy zonalar soni ortishiga qaramasdan, ularning aksariyati hali ham sanoat rivojlangan hududlarda faoliyat yuritmoqda (2-jadval).

2-jadval

O'zbekiston hududlarining innovatsion rivojlanish darajasi bo'yicha guruhlanishi[10]

Guruh	Hududlar	Tavsifi
Yuqori innovatsion faollik	Toshkent shahri, Toshkent viloyati, Navoiy viloyati	IT Park rezidentlari, sanoat ishlab chiqarishi, investitsiyalar, texnoparklar va innovatsion infratuzilma yuqori darajada rivojlangan.
O'rta innovatsion faollik	Samarqand, Andijon, Farg'ona, Buxoro, Namangan, Qashqadaryo	Sanoat va xizmatlar sohasi rivojlangan, lekin innovatsion infratuzilma va ilmiy-tadqiqot faolligi yetarli emas.
Past innovatsion faollik	Jizzax, Sirdaryo, Surxondaryo, Xorazm, Qoraqalpog'iston Respublikasi	Innovatsion loyihalar, yuqori texnologiyali korxonalar, R&D va startaplar soni nisbatan kam.

Foydalanilgan adabiyotlar (Literatury/ References):

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 6-iyuldagi «2022-2026-yillarda O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi PF–165-sonli Farmoni.
- Porter ME The Competitive Advantage of Nations. New York: Free Press, 1990. 855 p.
- Nelson R. National Innovation Systems. A Comparative Analysis. New York: Oxford University Press, 1993. 560 p.
- Кудряков Р. И., Федотова Г. В. Инновационная экосистема как фактор устойчивого развития региональной экономики // Известия Юго-Западного государственного университета. Серия: Экономика. Социология. Менеджмент. 2024. Т. 14, № 1. С. 48–62. <https://doi.org/10.21869/2223-1552-2024-14-1-48-62>.

Innovatsion faollikning yuqori darajasi asosan Toshkent shahri, Toshkent viloyati va Navoiy viloyatida kuzatiladi. Bu hududlarda mamlakatning eng yirik sanoat korxonalari, ilmiy-tadqiqot muassasalari, oliy ta'lim muassasalari, texnoparklar va IT kompaniyalari jamlangan. Shuningdek, yalpi hududiy mahsulot, investitsiyalar hajmi va sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha ham mazkur hududlar yetakchilik qiladi.

Samarqand, Andijon, Farg'ona, Buxoro, Namangan va Qashqadaryo viloyatlarida sanoat va tadbirkorlik faol rivojlanayotgan bo'lsada, innovatsion infratuzilma, texnologiyalar transferi va venchur moliyalashtirish imkoniyatlari yetakchi hududlarga nisbatan cheklangan. Jizzax, Sirdaryo, Surxondaryo, Xorazm va Qoraqalpog'iston Respublikasida yuqori texnologiyali ishlab chiqarish ulushi, ilmiy tadqiqotlar, startaplar va innovatsion korxonalar soni nisbatan kam bo'lib, innovatsion ekotizim elementlari hali to'liq shakllanmagan.

Tadqiqot natijalari mamlakat hududlarida innovatsion ekotizimlarning rivojlanish darajasi bir xil emasligini ko'rsatadi. Innovatsion infratuzilma, ilmiy tashkilotlar, investitsiya resurslari va yuqori malakali kadrlar asosan Toshkent shahrida jamlangan. Viloyatlarda esa innovatsion loyihalarni moliyalashtirish imkoniyatlari, texnologiyalar transferi, venchur kapital bozori va ilm-fan hamda biznes o'rtasidagi kooperatsiya hali yetarli darajada shakllanmagan.

O'zbekistonda innovatsion ekotizimni rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar hududlar iqtisodiyoti raqobatbardoshligini oshirish uchun mustahkam institutsional asos yaratmoqda. Biroq bu jarayonning yuqori samaradorligi innovatsion infratuzilmaning hududlar bo'yicha mutanosib rivojlanishi, ilmiy natijalarni tijoratlashtirish darajasining oshirilishi, xususiy sektor ishtirokining kengaytirilishi va innovatsion investitsiyalar hajmini ko'paytirish bilan bevosita bog'liq. Ana shu yo'nalishlardagi chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilishi hududlar iqtisodiyotining barqaror raqobatbardoshligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Xulosa va takliflar (Выводы и предложения/Conclusion).

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish va hududlar raqobatbardoshligini oshirish bo'yicha keng ko'lami institutsional islohotlar amalga oshirilayotgan bo'lsa-da, innovatsion ekotizim samaradorligini cheklab qo'yayotgan bir qator muammolar saqlanib qolmoqda.

Tadqiqot natijalari asosida hududlar iqtisodiyoti raqobatbardoshligini oshirish maqsadida quyidagi mexanizmlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

—hududiy innovatsion ekotizim ishtirokchilari (davlat–universitet–ilmiy markaz–biznes) o'rtasidagi hamkorlikni institutsional jihatdan mustahkamlash;

—har bir hududning iqtisodiy ixtisoslashuvidan kelib chiqqan holda texnologik parklar va innovatsion klasterlarni rivojlantirish;

—startaplar va yuqori texnologiyali loyihalar uchun venchur moliyalashtirish hamda xususiy investitsiya mexanizmlarini kengaytirish;

—universitetlarda yaratilayotgan ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish va texnologiyalar transferini rag'batlantirish;

—innovatsion ekotizim samaradorligini baholovchi hududiy reyting indikatorlarini joriy etish;

—raqamli iqtisodiyot va sun'iy intellekt texnologiyalarini hududiy iqtisodiy tarmoqlarga keng joriy etish.

Mazkur mexanizmlarni tegishli integratsiyasi innovatsion ekotizim ishtirokchilari o'rtasidagi institutsional hamkorlikni yanada kuchaytirish, innovatsion infratuzilmani hududlar bo'yicha mutanosib rivojlantirish, ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish mexanizmlarini takomillashtirish, venchur moliyalashtirish bozorini rivojlantirish va innovatsion faollikni baholashning kompleks indikatorlar tizimini joriy etish zarurligini ko'rsatadi. Mazkur yo'nalishlarda amalga oshiriladigan chora-tadbirlar hududlar iqtisodiyotining innovatsion salohiyatini yuksaltirish va ularning milliy hamda xalqaro raqobatbardoshligini ta'minlashga xizmat qiladi.

5. Сураева М.О., Иванов А.И., Шерстнев И.А. Управление инновационной инфраструктурой региона // Экономические науки. 2023., №7 (224). 176-182 с.
6. Эрматов Ш.Ж. Инвестициялар Ўзбекистон хуудлари иқтисодиёти рақобатбардошлигини оширишнинг муҳим омили // «XXI аср: фан ва таълим масалалари» илмий электрон журнали. – 2019. – №1.
7. Каримов Д.А. Республика хуудларининг ижтимоий-иқтисодий ривожланишини таҳлил қилишда рейтинг баҳолаш тизимининг моҳияти ва афзалликлари // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar илмий электрон журнали. – 2020. – № 5.
8. Турсунов Б.О. Ноль инновационных факторов в повышении конкурентоспособности сетей реального сектора экономики // Большая Евразия: развитие, безопасность, сотрудничество. 2023. №6-2. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/rol-innovatsionnyh-faktorov-v-povyshenii-konkurentosposobnosti-setey-realnogo-sektora-ekonomiki>.
9. www.stat.uz- O'zbekiston Respublikasi Milliy Statistika qo'mitasi rasmiy axborot sayti ma'lumotlari.